
Farg'ona viloyatida 4 ta Fuqarolik jamiyati institutlari davlat grantlariga ega bo'ldi

Xalq deputatlari Farg'ona viloyat Kengashi huzuridagi Jamoat fondi tomonidan "Jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy salohiyatini yanada yuksaltirishda Jamoat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash" mavzusida davlat grantini ajratish uchun 3-tanlovi e'lon qilingandi.

2024 yilning 21 avgustdan 23 sentyabrgacha davom etgan hujjatlarni qabul qilish jarayonida viloyat bo'yicha jami 15 ta grant loyihalar topshirildi.

Bulardan 13 ta loyiha NNT vakillaridan, 2 ta loyiha OAVlaridan kelib tushgan.

Mazkur loyihalar Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasi a'zolari tomonidan ko'rib chiqildi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, O'zbekiston mehr-shavqat va salomatlik jamoat fondi Farg'ona viloyati xududiy muassasasining "Sog'lom jamiyatni birgalikda yaratamiz" loyihasi (70 mln. so'm), O'zbekiston "Mahalla" hayriya jamoat fondi Farg'ona viloyati bo'limi boshqaruvining "Hududlardagi MFYlar bilan hamkorlikda ishsiz yoshlarni aniqlash, ro'yxatini shakllantirish va malakali xorijiy tillarni o'rgatuvchi mutaxassislarni jalg qilish" loyihasi (70 mln. so'm), O'zbekiston Musulmonlari idorasi Farg'ona viloyati vakilligining "Jaholatga qarshi ma'rifat" loyihasi (70 mln. so'm), "Ho'qandi latif kelajagi" jamoat fondining "Davlat hokimiyyati organlari bilan ijtimoiy xamkorlik qilishda NNTning salohiyatini oshirish" loyihasi (70 mln. so'm) g'olib deb topildi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasi qaroriga ko'ra, viloyat Jamoat fondi tomonidan jami 4 ta davlat granti loyihasi uchun 280 mln. so'm mablag' ajratildi

2024-09-30 17:25:12